

## O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI HAQIDA

Abduraimova Farangiz

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

O'tkir Hoshimov 20-asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib. Uning qirقدan ortiq asarlari ming-minglab kitobxonlarning ma'naviy mulkiga aylanishga ulgurgan. Asarlari oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turadi. "Dunyoning ishlari" asari ham ana shunday xalqchil asarlar sirasiga kiradi. Adib o'z asarini 2005-yilgi nashrida shunday ta'riflagan: " Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq, ularning barchasida eng aziz odam-Onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat, ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog'langan".

Adib bu asariga o'zining barcha samimiy hislarini tarannum etgan, samimiyat urug'ini kitobxon diliga sochgan. O'tkir Hoshimovning asarlarida yetakchilik qilgan insoniylik tarannumi butun insoniyat uchun hayotiy saboq bo'ladi. Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o'zbekona yondashuv kitobxonni o'ziga jalb etmay qo'ymaydi, albatta. Bu qissa haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degan edi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas, qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi.

Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi". Haqiqatdan ham, ular biz uchun eng aziz, tabarruk zotdirilar. Onalarimiz jamiyki go'zal narsalardan go'zal siymo, takrorlanmas- mo'jiza, eng muattar

hidlardanda xushbo'y- jannat rayhonlari,iforini taratguvchi-munisa,farzandlari uchun har narsaga tayyor turuvchi-g'amxo'r,hamisha ularni balolardan himoya qiluvchi-parvona,o'ziga ravo ko'rmagan quvonchni bolalariga ulashguvchi-hokisor.Biz ularni qancha e'zozlasak ham kam.Ular yagona ko'zga ko'rinuvchi bizning farishtalarimizdir.Dunyodagi barcha onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga o'xshaydi.Shuning uchun ham bo'lsa kerak,yozuvchi O'tkir Hoshimov o'z asarida dunyodagi barcha onalarni mehri to'la qalblarini yorqin ifodalagan.Adibning o'zi ham asarning "Tasalli" hikoyasi yakunida shunday yozgan:" Ilgarilari bir haqiqatni bilardim.Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi.

Endi yana bir haqiqatni angladim.Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan.Ona-ona ekan.Unga boshqa sifat kerakmas".Shunday ekan,biz onalarimizni har vaqt ko'ngliga qarashimiz,ularning rozi-rizoliklarini olib,boshimizga ko'tarishimiz,ko'zlaridan faqatgina shodlik,quvonch to'la qalblaridan mehr-muhabbat yaratib,ularni e'zozlashimiz kerak.Chunki,onalar tabiatning eng ajoyib ixtirosidirlar...